

9-sinf O'zbekiston tarixi

3-dars: XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining ma'muriy boshqaruv tizimi.

Darsning maqsadlari:

1. Ta'limiy maqsad:

O'quvchilarga Buxoro amirligining davlat boshqaruvi, amirlikni mang'itlar sulolasiga mansub hukmdorlar, amirlikda ijro hokimiyati, Xiva xonligi qo'ng'irotlar sulolasi tomonidan boshqarilishi, xonlikda oliy amaldorlari devonbegi, qo'shbegi, mehtar, otaliq, Qo'qon xonligining minglar sulolasi tomonidan boshqarilishi, Amir lashkar, mehtar, qozikalon, qozilar, muftiy, rais, mirshab haqida umumiy ma'lumot va tushunchalar berish;

Tarixiy davrlar va yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi;

Mazkur davrni o'rganish orqali o'quvchilar tarix fanining o'rganilayotgan davriga oid tarixiy atamalar mazmunini, tarixiy shaxslar haqida, tarixiy sanalarda ro'y bergan voqealar haqida ma'lumot bera oladi hamda mazkur davrga oid tarixiy joylarni tarixiy xaritadan ko'rsata oladi, ma'lumot bera oladi.

2. Tarbiyaviy maqsad:

O'quvchilarni yangi bilimlar egallashga va tartib-intizomga doimo rioya etishga yo'naltirish hamda ularda ona Vatanga nisbatan muhabbat tuyg'ularini shakllantirish;

O'quvchilarda xonliklarning ma'muriy boshqaruvi qay tarzda ekanligini farqlay olish ko'nikmasini shakllantirish;

O'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish.

3. Rivojlantiruvchi maqsad:

O'quvchilarning xonliklardagi davlat mansablarining vazifalari haqidagi bilimlarini rivojlantirish;

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish;

O'quvchilarda umumlashma xulosalar chiqarish ko'nikmasini shakllantirish.

Mavjud tarix faniga oida axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish.

O'QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Dars turi:	Yangi bilim beruvchi, bilimlarni shakllantiruvchi
Dars metodi:	"Interfaol metodlar", "Guruhlarda ishlash", «Matn ustida ishlash usuli», "Bingo".
Dars jihozi:	darslik, xarita, ko'rgazmali va didaktik materiallar, proyektor, AKT

DARSNING BLOK CHIZMASI:

No	DARS BOSQICHLARI:	Bajariladigan ish mazmuni	Ajratilgan vaqt
1	Tashkiliy qism	Salomlashish, davomatni aniqlash, sinfni darsga tayyorlash, kun tarixi aytiladi	3 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni takrorlash	Takrorlash, mustahkamlash, yangi mavzu bilan bog'lash	8 daqiqa
3	Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish	Yangi mavzuni tushuntirish	14 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa
5	Dars yakuni va baholash	G'olib guruhni aniqlash, rag'batlantirish. Darsning so'ngi xulosasini chiqarish	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	O'qituvchi tomonidan uyga vazifa e'lon qilinadi va keyingi mavzuga tayyorlanib kelish yo'nalishini aytib o'tadi	2 daqiqa



Yangi dars mazmunining tayanch tushunchalari, atamalari, tarixiy sana va nomlar:

Xon, amir, qushbegi, devonbegi, mehtar, mingboshi, shayxulislom, mirshabboshi, dodhoh, mirobboshi, muftiy, rais, Ark, mang'itlar sulolasi, qo'ng'irotlar sulolasi, minglar sulolasi.

DARSNING BOBISHI

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Darsda psixologik iqlim yaratish, dars shiori va maqsadini e'lon qilish.

O'qituvchi tomonidan bugungi kunda tavallud topgan mashhur shaxslar, yurtimiz va jahon maydonida sodir bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlar, bayramlar haqida **qisqacha** ma'lumot berib o'tiladi.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash:

“Guruhlarda ishlash”



O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruh uyga berilgan mavzuga oid atamalardan o'z guruhlariga nom qo'yib olishadi hamda guruhga qo'yilgan nomga qisqacha ta'rif berishadi.

1-topshiriq: Guruhlarga o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi topshiriqlar beriladi:

Bunda «Bingo mashqi» dan foydalaniladi.

200 ming km. kv	2 mln	o'zbeklar
1710	1756	Buxoro amirligi
800 ming	Xiva xonligi	Qo'qon xonligi

O'quvchilarga oldindan tayyorlangan kartochkalar tarqatiladi. Kartochkalardagi jadvalda raqamlar va so'zlar yozilgan bo'ladi.

O'qituvchi shu raqam va nomga taalluqli jumlaning o'qiydi va o'quvchi o'qilayotgan jumlagacha tegishli raqam yoki atamani belgilaydi. Jumladan, savollar quyidagicha bo'ladi:

- Qo'qon xonligi qachon tashkil topgan? (1710)
- Buxoro amirligi qachon tashkil topgan? (1756)
- Xonliklardagi aholining katta qismini kimlar tashkil qilgan? (o'zbeklar)
- Xiva xonligi aholisi qancha bo'lgan? (800 ming)
- Buxoro amirligining hududi qancha bo'lgan? (200 ming km.kv)
- Buxoro amirligining aholisi qancha bo'lgan? (2 mln.)
- Qaysi davlat hududiga Qozog'istonning janubi, Tojikiston va Qirg'izistonning katta qismi kirgan? (Qo'qon xonligi)
- Qaysi davlatning hududi 130 ming km. kv ni tashkil qilgan? (Xiva xonligi)
- Hududi jihatidan eng katta davlat qaysi edi? (Buxoro amirligi) Kartochkani birinchi bo'lib to'ldirgan o'quvchi «Bingo» - deb bildirib qo'yadi.

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish:

Bu vazifa quyidagi reja asosida amalga oshiriladi:

- Buxoro amirligining davlat boshqaruvi;**
- Xiva xonligining davlat boshqaruvi;**
- Qo'qon xonligining davlat boshqaruvi.**



Buxoro amirligining davlat boshqaruvi;




Buxoro arki

Buxoro amirligida oliy hukmdor *amir* hisoblanib, uning hokimiyati avloddan avlodga meros tarzda o'tgan. Amirlikni *mang'itlar sulolasiga* (1756—1920) mansub cheklamnagan hokimiyatga ega bo'lgan hukmdorlar boshqargan.

Buxoro shahri amirlikning ma'muriy markazi edi. Amirlikda ijro hokimiyati bosh vazir *qo'shbegi* qo'lida bo'lgan. Viloyat va tuman hokimlari qo'shbegi tavsiyasi bilan tayinlangan. Moliya va xazina ishlari, soliqlar to'planishi kabi sohalarni *devonbegi* idora qilgan. *Devonbegiga* tashqi aloqalarni yuritish ham yuklatilgan. Unga amirlik hujjatlarini yuritishga mas'ul *mirzaboshi* bo'ysungan. Amirlikda soliqlarni o'z vaqtida yig'ish va ularni hisobga olib borishga javobgar kishi *mushrif* hisoblangan. *Dodhoh* lavozimini egallab

turgan shaxs xalqning shikoyatlari bilan shug'ullangan. Oliy hukmdor farmonlarini *parvonachi* e'lon qilgan. Shariat qoidalari va qonunlar ijrosi, sud ishlarini nazorat qilishni *shayxulislom* bajargan. Shayxulislomga bo'ysungan *muftiy* diniy-huquqiy masalalar bilan *mahtasiblar* esa shariat qoidalarining bajarilishi va amal qilinishi masalalari bilan shug'ullangan. Buxoro amirligida sud boshlig'i *qozikalon, raiskalon* hisoblangan. Vaqf ishlari va mulklari bilan *sadr* shug'ullangan. Amir qarorgohi hisoblangan arkda taxt vorisi — valiahd tarbiyasi bilan *otaliq* mashg'ul bo'lgan. *To'pchiboshi* amir qo'shinlarining bosh qo'mondoni bo'lgan. Amirlikning shaharlarida tinchlik va tartibni saqlashga amir soqchilari boshlig'i — *mirshabboshi* mas'ul hisoblangan. *Ko'kaldosh* mamlakat xavfsizligi, amirning yaqinlari, do'stlari va dushmanlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash bilan shug'ullangan. Buxoro amirligida davlat boshqaruvi, moliya, sud, mirshablik va harbiy ishlar amirning qarindoshlari, o'ziga yaqin odamlar tomonidan boshqarilgan. Ular o'z faoliyatlarini bajarishda katta huquq va imtiyozlarga ega bo'lganlar.

Oqituvchining qisqa ma'ruzasidan keyin o'quvchilar DVD da « **Buxoro amirligi hududi va ma'muriy boshqaruvi** » mavzusidagi o'quv filmini tomosha qiladi **(VIDEO: 1-ILOVA)**. Bu jarayonda o'qituvchining o'zi faol bo'lishi nazarda tutiladi.




Xiva xonligining davlat boshqaruvi;



Ichan qal'a. Xiva

Xiva xonligi *qo'ng'irotlar stdolasi* (1770—1920) tomonidan boshqarilib, uning oliy hukmdori *xon* hisoblangan. U cheklanmagan ma'muriy, harbiy hokimiyatga ega bo'lgan. Oliy hukmdor hisoblangan xon qarorgohi Xiva shahrida joylashgan. Bu shaharda ichki Ichan qal'a va mudofaa devori bilan o'ralgan tashqi Dishan qal'a mavjud bo'lgan. Xonlikda Xiva, Urganch, Qiyot, Hazorasp, Qo'ng'irotdan kabi shaharlar ma'muriy, savdo-sotiq va madaniy markazlar hisoblangan. Xonlikda oliy amaldor *devonbegi* hisoblanib, uning ixtiyorida *qo'shbegi, mehtar, otaliq*dan iborat kengash faoliyat ko'rsatgan. Aholining tinchligi va osoyishtaligi bilan *mirshabboshi*, xonlikdagi tartib-intizom ishlariga xon qo'shinlarining bosh qo'mondoni - *yasovulboshi*, diniy ishlar va shariat qoidalariga rioya etilishi va amal qilinishi masalalariga *shayxulislom*, sug'orish inshootlari va suv ta'minoti hamda taqsimotiga *miroboshi* mas'ul hisoblangan. Harbiy bo'linmalarga lashkarboshilar qo'mondonlik qilgan. Askarlik xizmatida bo'lganlar soliqlardan ozod qilingan.

Oqituvchining qisqa ma'ruzasidan keyin o'quvchilar DVD da « **Xiva xonligi hududi va ma'muriy boshqaruvi** » mavzusidagi o'quv filmini tomosha qiladi **(VIDEO: 2-ILOVA)**. Bu jarayonda o'qituvchining o'zi faol bo'lishi nazarda tutiladi.



Qo'qon xonligining davlat boshqaruvi.



Xudoyorxon saroyi. XIX asr oxiri

Qo'qon xonligida oliy hukmdor *xon* hisoblangan. Xonlik *minglar sulolasi* (1710-1876) tomonidan boshqarilgan va uning ma'muriy markazi Qo'qon shahri bo'lgan. Qo'qon xoni hokimiyati merosiy hisoblanib, xon cheklanmagan siyosiy, ma'muriy va harbiy hokimiyatni o'z qo'lida mujassamlashtirgan. Eng yuqori harbiy lavozim *amirlashkar* bo'lib, u harbiy vazir hisoblangan. Xonlikdagi alohida harbiy bo'linmalarga *mingboshilar* rahbarlik qilgan. Ular keyinchalik bosh vazir vazifasini bajargan. Xazina ishlari va xarajatlarini *mehtar nazorat* qilib borgan.



Qozikolon, qozilar islom dini qoidalari asosida sud ishlarini olib borganlar. *Muhtasib-raislar* diniy ishlar, shariat qoidalari rioya qilinishi, savdo-sotiqning to'g'ri yuritilishini nazorat qilganlar. Xonlikdagi tartib-intizom ishlari bilan *mirshahlar* shug'ullangan.

O'qituvchining qisqa ma'ruzasidan keyin o'quvchilar DVD da « **Qo'qon xonligi hududi va ma'muriy boshqaruvi** » mavzusidagi o'quv filmi tomosha qiladi (**VIDEO: 3-ILOVA**). Bu jarayonda o'qituvchining o'zi faol bo'lishi nazarda tutiladi.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Darsning bu bosqichi quyidagi savol-topshiriqlar yozilgan kartochkalarini o'quvchilarga (guruhlariga) tarqatish orqali bajariladi:

1-topshiriq: «Matn ustida ishlash usuli».

O'quvchilar to'rt guruhga bo'linadi va ularga topshiriqlar beriladi. Har bir guruh o'z topshirig'ini darslikdan foydalangan holda, o'tgan mavzu bilan bo'g'lab vatmanga yozadi.

1-guruhga: O'rta Osiyo davlatlarining hududi, aholisi va ularning mashg'ulotlari haqida ma'lumot to'plang.



t/r	Davlat nomi	Hududi	Aholining tarkibi	Aholining mashg'ulotlari
1.	Buxoro amirligi			
2.	Xiva xonligi			
3.	Qo'qon xonligi			

2- guruhga: Xiva xonligi hududi, aholisi va davlat boshqaruvi haqida ma'lumot to'plang.



Xiva xonligi		
Hududi	Aholi tarkibi	Davlat boshqaruvi

3- guruhga: Qo'qon xonligi hududi, aholisi va davlat boshqaruvi haqida ma'lumot to'plang.



Qo'qon xonligi		
Hududi	Aholi tarkibi	Davlat boshqaruvi

4- guruhga: Buxoro amirligi hududi, aholisi va davlat boshqaruvi haqida ma'lumot to'plang.



Buxoro amirligi		
Hududi	Aholi tarkibi	Davlat boshqaruvi

Guruh sardorlari doskaga vatmanlarni osib, javoblarni izohlab berishadi. Javoblar o'qituvchi tomonidan to'ldiriladi va aniqlik kiritiladi.

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.



V. Dars yakunlarini chiqarish



Yakunlarni chiqaramiz!

- ▶ O'rta Osiyo xonliklarida oliy hukmdor cheksiz siyosiy, ma'muriy, sud hokimiyatiga ega bo'lgan.
- ▶ Viloyat va tumanlarni oliy hukmdor tomonidan tayinlangan shaxslar boshqargan.
- ▶ Qozilar sud ishlarini islom dini qoidalari asosida olib borganlar.



1. O'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob berish;
2. Baholarni e'lon qilish.
3. O'quvchilar aytib o'tgan fikrlari to'planib tahlil va xulosa qilinadi va darsning eng so'nggi xulosasi chiqariladi

VI. Uyga vazifa



Mavzu yuzasidan darslikda berilgan savollarga javob topish.

Krossvord tuzib kelish.

Kelgusi darsda o'tiladigan mavzu bilan tanishib kelish, asosiy tushunchalarni eslab qolish, qo'shimcha manbalarni izlab topish



Kelgusi yilda o'zgartirish kiritilsa yoki internetdan olingan yangiliklar bo'lsa yoziladi:


QO'SHIMCHA MA'LUMOT

Buxoro amirligida Amir - oliy hukmdor. Ishonchlilikda vazirdan keyingi o'rinni quyidagilar egallagan:

1. bosh xoja - haram xodimlari boshlig'i;
 2. qutvol - qurilish ishlariga mas'ul bo'lgan shaxs;
 3. bosh boshi - amir oshxonasining boshqaruvchisi. Amir xazina- sining bosh xazinachisi miroxurboshi harbiy yurishga, ovga chiqiladigan otlarni tayyorlashga mas'ul bo'lgan.
- Xudaychi - har doim amiming yonida yurib, tantanalarni boshqargan.
Udaychi - urush paytida harbiylarni turiga qarab taqsimlovchi amaldor.
Shig'ovul - amiming yordamchi-maslahatchisi, xorijiy mehmonlarni kutib olib, kuzatib qo'yuvchi.
Tanqadar - amiming kayfiyatini ko'taruvchi, uning oromini saqlovchi.
So'fiy jilov - amir safarga chiqqanida fотиha o'qib duo qiluvchi.
Salom og'asi - amir mamlakatni kechganda unga qaratilgan ta'zim, ehtirom, izzat-ikromni qabul qiluvchi.
Choshnagir - amiring hayoti uchun mas'ul bo'lib, amir ovqatlarini birinchi bo'lib tatib ko'rgan.



KO'RGAZMALI MATERIALLAR



Buxoro qushbegi.

